“BAXTLI TADBIRKOR” rag‘batlantiruvchi aksiyasida

qatnashish uchun

OMMAVIY OFERTA

Toshkent sh.

“__” _____ 2026-y.dagi tahrir

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda — “Oferta”) “BAXTLI TADBIRKOR” nomi ostida HUMO to‘lov tizimining POS-terminallari egalari uchun o‘tkaziladigan rag‘batlantiruvchi aksiyaning (keyingi o‘rinlarda — “Aksiya”) o‘tkazilish va ishtirok etish tartibi hamda shartlarini belgilaydi.

1.2. Aksiya tashkilotchisi — HUMO milliy to‘lov tizimi operatori bo‘lgan “Milliy banklararo protsessing markazi” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda — “Tashkilotchi” yoki “MBPM”). Tashkilotchi Aksiyani tashkil etish va o‘tkazish, sovrin jamg‘armasini shakllantirish, o‘yinlarni o‘tkazish, g‘oliblarni aniqlash, sovrinlarni topshirish, shuningdek, mazkur Oferta nazarda tutgan boshqa majburiyatlarni mustaqil ravishda ta’minlaydi. Tashkilotchi mazkur Ofertaga qo‘shilgan Axborot hamkorlarini jalb etishga haqli. Axborot hamkorlari Aksiyada faqat mazkur Oferta bilan belgilangan huquq va majburiyatlar doirasida ishtirok etadi.

1.3. Aksiyani axborot jihatidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida Tashkilotchi banklar, to‘lov tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslarni, shu jumladan Axborot hamkorlarini jalb etishga haqli. Mazkur Oferta bilan boshqacha tartib to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan bo‘lmasa, Axborot hamkorlari Tashkilotchi maqomiga ega bo‘lmaydi va Aksiyani o‘tkazish funksiyalarini amalga oshirmaydi.

1.4. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi hamda Tadbirkorlar tomonidan HUMO POS-terminallaridan foydalangan holda naqdsiz to‘lovlarni qabul qilishni rag‘batlantirish, HUMO POS-terminallari orqali ekvayring aylanmasini oshirish va faol savdo nuqtalari tarmog‘ini kengaytirishga qaratilgan.

1.5. Aksiya lotereya, qimor o‘yini, garov yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa faoliyat hisoblanmaydi, unda ishtirok etish uchun alohida to‘lov talab etilmaydi hamda Ishtirokchining Tashkilotchiga biron-bir badal kiritishi bilan bog‘liq emas.

1.6. Aksiyada ishtirok etish bepul. Hafta Ishtirokchisi maqomi Tadbirkorga Oferta 6-bo‘limida belgilangan shartlarni bajargan taqdirda avtomatik ravishda beriladi va Aksiyaning rasmiy Telegram-botida alohida ro‘yxatdan o‘tishni talab qilmaydi. G‘olib Ofertada nazarda tutilgan tartibda sovrinni olishdan voz kechishga haqli.

1.7. Aksiya doirasida sovrinlar bo‘yicha amalga oshiriladigan to‘lovlar tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun to‘lov hisoblanmaydi, Ishtirokchiga moddiy yordam hisoblanmaydi va faqat Tashkilotchining rag‘batlantiruvchi tadbiri doirasida amalga oshiriladi.

1.8. Ofertaning amaldagi tahriri, Aksiya to‘g‘risidagi ma’lumotlar, muddatlar, sovrinlar, ishtirok etish tartibi, o‘yinlarni o‘tkazish tartibi, shuningdek, Ofertada nazarda tutilgan doirada ishtirokchilar va g‘oliblar ro‘yxati Tashkilotchining rasmiy axborot resurslarida, MBPMning rasmiy veb-sayti — www.humocard.uzda joylashtiriladi va Aksiyaning rasmiy Telegram-boti – @HumoNestBot orqali foydalanish uchun taqdim etiladi. Shuningdek, mazkur ma’lumotlar Axborot hamkorlarining rasmiy axborot resurslarida ham joylashtirilishi mumkin.

1.9. Mazkur Oferta bilan reklama materiallari, axborot xabarlari, nashrlar, Axborot hamkorlarining materiallari, push-bildirishnomalar, rasmiy Telegram-bot yoki boshqa axborot manbalarida joylashtirilgan ma’lumotlar o‘rtasida tafovut yuzaga kelgan taqdirda, mazkur Oferta qoidalari qo‘llaniladi.

1.10. Tashkilotchi Aksiya to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zbek, rus va boshqa tillarda e’lon qilishga haqli. Til versiyalari o‘rtasida tafovutlar yuzaga kelgan taqdirda, agar Tashkilotchi tomonidan bevosita boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, Ofertaning o‘zbek tilidagi versiyasi ustuvor hisoblanadi.

2. Atamalar va ta’riflar

Atama	Ta’rif
Aksiya	Tashkilotchi tomonidan mazkur Oferta shartlari asosida o‘tkaziladigan **“BAXTLI TADBIRKOR”** rag‘batlantiruvchi aksiyasi.
Tadbirkor	O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan, bir yoki bir nechta amaldagi HUMO POS-terminallarining egasi bo‘lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.
Hafta Ishtirokchisi	Tegishli Aksiya haftasi davomida barcha ro‘yxatdan o‘tgan va faol HUMO POS-terminallari orqali amalga oshirilgan umumiy **Aylanmasi 7 000 000 (yetti million) so‘mdan 70 000 000 (yetmish million) so‘mgacha** (shu summa ham kiradi) bo‘lgan Tadbirkor.
HUMO POS-terminali	Tadbirkorning savdo va xizmat ko‘rsatish korxonasida o‘rnatilgan hamda HUMO protsessing tizimiga ulangan, HUMO, Visa va MasterCard kartalaridan foydalangan holda naqdsiz to‘lovlarni qabul qilish uchun mo‘ljallangan terminal.
Terminal ID	Tashkilotchining protsessing tizimida HUMO POS-terminalining noyob identifikatori.
STIR	Yuridik shaxsga beriladigan soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami.
JSHSHIR	Yakka tartibdagi tadbirkorni identifikatsiya qilish uchun foydalaniladigan jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami.
Tadbirkorning vakolatli vakili	Tadbirkor nomidan qonun, ta’sis hujjatlari, ishonchnoma yoki tegishli vakolatlarni tasdiqlovchi boshqa hujjat asosida faoliyat yurituvchi jismoniy shaxs.
Aylanma	Aksiya haftasi davomida Tadbirkorning POS-terminal(lar)i orqali amalga oshirilgan HUMO, Visa va MasterCard kartalaridan foydalangan holda to‘lov bo‘yicha hisobga olinadigan operatsiyalarning jami summasi.
Aksiya davrlari	**Aksiyada ishtirok etish davri** — Ishtirokchilarning operatsiyalari hisobga olinadigan, shuningdek, ishtirokchilarga o‘yinlarda qatnashish imkoniyatlarini beradigan Aksiya o‘tkaziladigan davr. **O‘yinlarni o‘tkazish davri** — Tashkilotchi jonli efirlarni o‘tkazadigan va g‘oliblarni aniqlaydigan davr. O‘yin sanalari alohida belgilanadi va Aksiyada ishtirok etish davriga kirmaydi. **Sovrinlarni olish davri** — g‘oliblar hujjatlarni taqdim etishi va sovrinlarni olishi mumkin bo‘lgan davr.
Bosqich	Tegishli o‘yin ishtirokchilari ro‘yxatini shakllantirish maqsadida Tadbirkorning Aylanmasi aniqlanadigan, **7 (yetti) kalendar kunidan iborat hisob-kitob davri**. Bosqichlarning umumiy soni — **9 (to‘qqizta)**.
Rasmiy Telegram-bot	Tadbirkorning xohishiga ko‘ra ishtirokini tekshirish, Aksiya haqida ma’lumot olish, ishtirokchilar va g‘oliblar ro‘yxatini ko‘rish, shuningdek, ayrim bildirishnomalarni olish uchun foydalaniladigan Aksiyaning rasmiy Telegram-boti @**HumoNestBot**.
Axborot hamkori	Mazkur Oferta shartlariga rozilik bildirgan va Aksiyani mazkur Oferta nazarda tutgan tartib va shartlar asosida axborot jihatidan qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.
Ishtirokchilar ro‘yxati	Tashkilotchi tomonidan shakllantiriladigan, tegishli o‘yinda ishtirok etishga ruxsat etilgan Ishtirokchilarning imkoniyatlari/qaydlaridan iborat hamda g‘oliblarni tasodifiy tanlashda foydalanish uchun noyob tartib raqami berilgan ro‘yxat.
G‘oliblar ro‘yxati	Tegishli o‘yin natijalariga ko‘ra aniqlangan va niqoblangan ko‘rinishda e’lon qilinadigan g‘oliblar ro‘yxati.

Atama	Ta’rif
O‘yin	Tashkilotchining rasmiy resurslarida jonli efirda **random.org** servisidan foydalangan holda tasodifiy tanlash usuli orqali g‘oliblarni aniqlash jarayoni.
Komissiya	O‘yinlarni tayyorlash va o‘tkazishning shaffofligini ta’minlash maqsadida buyruq/bayonnoma asosida tashkil etiladigan Tashkilotchining ishchi guruhi.
G‘olib	Tegishli Aksiya haftasidagi o‘yin yakunlariga ko‘ra qaydi g‘olib sifatida aniqlangan va Tashkilotchi tomonidan qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tkazilgandan so‘ng Oferta shartlariga muvofiq keladigan Tadbirkor.
Zaxira g‘olib	Mazkur Oferta nazarda tutgan holatlar va tartibda asosiy g‘olibga sovrinni topshirishning imkoni bo‘lmagan taqdirda, Aksiya sovrinini o‘ynash jarayonida aniqlanadigan Ishtirokchi.
Sovrin jamg‘armasi	Aksiya doirasida o‘ynaladigan jami pul mukofotlarining summasi

3. AKSIYANI O‘TKAZISH MUDDATLARI

3.1. Aksiyani o‘tkazish davri: 2026-yil 14-sentyabr soat 00:00 dan 15-noyabr soat 23:59 gacha (shu vaqt ham kiradi), agar Ofertada nazarda tutilgan tartibda Tashkilotchi tomonidan boshqa sanalar tasdiqlanib, e’lon qilinmagan bo‘lsa.

3.2. Aksiyani o‘tkazish davri 9 (to‘qqiz) ta Bosqichdan iborat. Har bir Bosqich tegishli O‘yinda ishtirok etuvchi Tadbirkorlar ro‘yxatini shakllantirish uchun qo‘llaniladi. Bosqichlar va O‘yinlarning aniq sanalari Ofertaning 9-bo‘limidagi jadvalda ko‘rsatiladi.

3.3. Har bir Bosqich yakunlanganidan so‘ng Tashkilotchi ma’lumotlarga texnik ishlov beradi, operatsiyalarni tekshiradi, Oferta shartlariga mos kelmaydigan operatsiyalarni chiqarib tashlaydi, ishtirokchilar ro‘yxatini shakllantiradi hamda ommaviy O‘yinni o‘tkazish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi.

3.4. Bosqich yakunlanganidan keyingi texnik tayyorgarlikning taxminiy muddati 2 (ikki) ish kunidan 3 (uch) ish kunigacha. Texnik, tashkiliy, bank, protsessing yoki boshqa obyektiv sabablar mavjud bo‘lgan taqdirda, Tashkilotchi ushbu muddatni uzaytirishga haqli.

3.5. O‘yinlarning jonli efirlari o‘tkaziladigan yakuniy sana va vaqt Tashkilotchi tomonidan rasmiy resurslarda va/yoki rasmiy Telegram-botda @HumoNestBot tegishli O‘yin o‘tkazilishidan kamida 1 (bir) ish kuni oldin e’lon qilinadi, agar bunga texnik holatlar sabab bo‘lmasa.

4. AKSIYA ISHTIROKCHILARI

4.1. Aksiyada ishtirok etishga O‘zbekiston Respublikasi hududida ro‘yxatdan o‘tgan va faoliyat yuritayotgan, bir yoki bir nechta amaldagi HUMO POS-terminallarining egasi bo‘lgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar qo‘yiladi.

4.2. Aksiyada ishtirok etish uchun alohida ro‘yxatdan o‘tish yoki Tadbirkor tomonidan ma’lumot taqdim etish talab etilmaydi. Tashkilotchi Tadbirkorlarni hamda ularga tegishli amaldagi HUMO POS-terminallarini Tashkilotchining protsessing tizimlaridagi ma’lumotlar asosida mustaqil ravishda aniqlaydi.

4.3. Hafta Ishtirokchisi deb tegishli Aksiya Bosqichi davomida o‘z profiliga bog‘langan barcha amaldagi HUMO POS-terminallari bo‘yicha umumiy Aylanmasi 7 000 000 so‘mdan 70 000 000 so‘mgacha, shu jumladan, bo‘lgan Tadbirkor e’tirof etiladi.

4.4. Tadbirkor bilan o‘zaro aloqa, shu jumladan, yutuq to‘g‘risida xabardor qilish Tashkilotchi tomonidan Tadbirkorning yoki uning vakillarining Tashkilotchiga ma’lum bo‘lgan telefon raqamlariga qo‘ng‘iroq qilish orqali amalga oshiriladi. G‘olib bilan aloqa tegishli O‘yin natijalari e’lon qilinganidan keyin 3 (uch) ish kuni davomida telefon orqali kamida 3 (uch) marta bog‘lanishga urinish orqali amalga oshiriladi. Tadbirkor Tashkilotchiga ma’lum bo‘lgan kontakt ma’lumotlarining mavjud emasligi, noto‘g‘riligi yoki dolzarbligini yo‘qotganligi sababli u bilan bog‘lanishning imkoni bo‘lmasligi xavfini mustaqil ravishda o‘z zimmasiga oladi.

4.5. G‘olib deb O‘yin yakunlariga ko‘ra qaydi g‘olib deb aniqlangan, Tashkilotchi tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvdan o‘tgan, zarur hujjatlarni taqdim etgan hamda diskvalifikatsiya qilish uchun asoslar mavjud bo‘lmagan Tadbirkor e’tirof etiladi.

4.6. Aksiyada ishtirok etish uchun maxsus mahsulotni xarid qilish, ro‘yxatdan o‘tish badalini to‘lash yoki boshqa harakatlarni amalga oshirish talab etilmaydi, bundan Tadbirkorning odatiy xo‘jalik faoliyati doirasida amaldagi HUMO POS-terminallari orqali naqdsiz to‘lovlarni qabul qilishi mustasno.

4.7. Axborot hamkorlari Aksiya G‘oliblarini aniqlamaydi.

4.8. Aksiya to‘g‘risidagi ma’lumotlarning Axborot hamkorlarining axborot resurslarida joylashtirilishi faqat Aksiyaning potensial ishtirokchilarini xabardor qilish maqsadida amalga oshiriladi.

4.9. Tadbirkor belgilangan shartlarni bajargan taqdirda Aksiyaning har bir Bosqichida ishtirok etish huquqiga ega va Aksiya o‘tkaziladigan butun davr mobaynida bir necha marta G‘olib deb e’tirof etilishi mumkin.

5. ISHTIROK ETISHDAGI CHEKLOVLAR

5.1. Aksiyada quyidagilar ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi: HUMO MBPM xodimlari, Tashkilotchi xodimlari tomonidan nazorat qilinadigan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, Tashkilotchi xodimlarining Tadbirkorning Vakolatli vakili yoki benefisiar mulkdori sifatida ishtirok etadigan yaqin qarindoshlari (turmush o‘rtog‘i, ota-onasi, farzandlari, tug‘ishgan aka-uka va opa-singillari).

5.2. Agar O‘yin davomida 5.1-bandda nazarda tutilgan cheklovlarga tushadigan Tadbirkor G‘olib deb topilsa, bunday Tadbirkorning Vakolatli vakili bu haqda darhol Tashkilotchining Marketing va PR departamentini xabardor qilishi shart.

5.3. 5.1-bandda nazarda tutilgan cheklovlarga tushadigan Tadbirkorning G‘olib deb topilganligi fakti aniqlangan taqdirda, bunday Tadbirkor G‘oliblar safidan chiqariladi, tegishli sovrin esa Oferta 9-bo‘limida nazarda tutilgan tartibda Aksiyaning yakuniy (to‘qqizinchi) Haftasi sovrin jamg‘armasi doirasida qayta o‘ynaladi.

5.4. Aksiyada quyidagilar ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi: budjet, moliya, davlat va notijorat tashkilotlarining POS-terminallari, agar Tashkilotchi tomonidan boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa; Aksiyaning Axborot hamkorlariga yoki ular bilan bog‘liq shaxslarga tegishli POS-terminallar; HUMO protsessing tizimi bilan integratsiya orqali Tadbirkorga tegishliligi tasdiqlanmagan POS-terminallar.

5.5. Tashkilotchi firibgarlik, Aylanmani sun’iy ravishda shakllantirish, Aksiya mexanizmidan suiiste’mol qilish, texnik xatolik, operatsiyani bekor qilish, qaytarish, nizoli operatsiya, to‘lov tizimi qoidalarini buzish yoki ishtirok etishning to‘g‘riligiga ta’sir qiluvchi boshqa holatlar alomatlari aniqlangan taqdirda, Tadbirkorni Aksiyada ishtirok etishga qo‘ymaslikka yoki uni sovrin uchun da’vogarlar qatoridan chiqarishga haqli.

5.6. Tadbirkor ishtirok etish huquqini, Hafta Ishtirokchisi maqomini, yutuqni, sovrinni talab qilish huquqini yoki sovrinni olish huquqini uchinchi shaxslarga berishga haqli emas, qonunchilikda bevosita nazarda

tutilgan va Tashkilotchi bilan yozma ravishda kelishilgan holatlar, masalan, yuridik shaxs qayta tashkil etilishi bilan bog‘liq holatlar bundan mustasno.

6. ISHTIROK ETISH TARTIBI VA HISOBGA OLINADIGAN OPERATSIYALAR

6.1. Hafta Ishtirokchisi maqomini olish uchun Tadbirkor tegishli Aksiya Haftasi davomida o‘ziga tegishli amaldagi HUMO POS-terminallari orqali tovarlar va/yoki xizmatlar uchun hisobga olinadigan, umumiy Aylanmasi 7 000 000 (yetti million) so‘mdan 70 000 000 (yetmish million) so‘mgacha (shu summa ham kiradi) bo‘lgan to‘lov operatsiyalarini amalga oshirishni ta’minlashi lozim.

6.2. Faqat muvaffaqiyatli amalga oshirilgan va bekor qilinmagan, HUMO, MasterCard va Visa kartalaridan foydalangan holda tovarlar va/yoki xizmatlar uchun amalga oshirilgan xarajat operatsiyalari, agar bunday operatsiya Tashkilotchining protsessing tizimi tomonidan Tadbirkorning amaldagi HUMO POS-terminallari orqali savdo va xizmat ko‘rsatish korxonasida tovar yoki xizmat uchun to‘lov sifatida qayta ishlangan bo‘lsa, hisobga olinadi.

6.3. Tadbirkorning Aksiya Bosqichidagi Aylanmasi Tashkilotchi tomonidan Tadbirkorga tegishliligi tasdiqlangan barcha amaldagi HUMO POS-terminallari bo‘yicha tegishli Aksiya Haftasining birinchi kalendar kuni soat 00:00 dan oxirgi kalendar kuni soat 23:59:59 gacha bo‘lgan davrda amalga oshirilgan hisobga olinadigan operatsiyalar summasi sifatida belgilanadi.

6.4. Agar Tadbirkorning Aksiya Haftasidagi umumiy Aylanmasi 7 000 000 so‘mdan kam bo‘lsa, Tadbirkor tegishli hafta uchun Hafta Ishtirokchisi deb e’tirof etilmaydi. Agar Tadbirkorning Aksiya Haftasidagi umumiy Aylanmasi 70 000 000 so‘mdan ortiq bo‘lsa, Tadbirkor tegishli hafta uchun Hafta Ishtirokchisi deb e’tirof etilmaydi. Aylanma Aksiya Bosqichlari o‘rtasida ko‘chirilmaydi va jamlanmaydi — Hafta Ishtirokchisi maqomi har bir Aksiya Haftasi uchun alohida belgilanadi.

6.5. Amaldagi HUMO POS-terminallari sonidan, 6.1-bandda ko‘rsatilgan diapazondagi hisobga olinadigan operatsiyalar soni va summasidan qat’i nazar, Tadbirkorga tegishli Aksiya Haftasi uchun Hafta Ishtirokchilari ro‘yxatida ko‘pi bilan bitta qayd beriladi.

6.6. Operatsiyalar Tashkilotchining protsessing tizimlarida ularning amalda qayta ishlangan sanasi va vaqti bo‘yicha hisobga olinadi. Ma’lumotlar o‘rtasida tafovut mavjud bo‘lgan taqdirda, Tashkilotchining protsessing tizimi ma’lumotlari ustuvor hisoblanadi.

6.7. Aksiya maqsadlari uchun Tashkilotchining protsessing tizimida noyob identifikatorga ega bo‘lgan operatsiya noyob operatsiya hisoblanadi. Bir xil identifikatorga ega bo‘lgan operatsiyalar texnik dublikatlar deb hisoblanadi va Aylanmaga kiritilmaydi.

6.8. Tashkilotchi Aylanma to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yangilashda 48 (qirq sakkiz) soatgacha texnik kechikishni belgilashga haqli. Rasmiy Telegram-botdagi ma’lumotlar HUMO protsessingi va Tashkilotchining ichki tizimlari tomonidan operatsiyalarga ishlov berilganidan so‘ng, shu jumladan, tungi (paketli) rejimda yangilanishi mumkin.

6.9. Hisobga olinmaydigan operatsiyalar

Aylanmani shakllantirishda quyidagi operatsiyalar hisobga olinmaydi:

- naqd pul mablag‘larini yechib olish bo‘yicha operatsiyalar;
- hisobvaraqni, elektron hamyonlarni to‘ldirish, tovar/xizmat uchun to‘lov bilan bog‘liq bo‘lmagan kirim operatsiyalari;
- omonatlar va bank hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalar (yechib olish/to‘ldirish);
- komissiya operatsiyalari;

- valyuta ayirboshlash, konvertatsiya qilish, valyutani sotib olish/sotish bo‘yicha operatsiyalar;
- qaytarishlar, qisman qaytarishlar, bekor qilingan, e’tiroz bildirilgan va nizoli operatsiyalar;
- xato, firibgarlik bilan bog‘liq, texnik dublikat yoki HUMO to‘lov tizimi qoidalarini buzgan holda amalga oshirilgan deb topilgan operatsiyalar;
- Tashkilotchi tovar/xizmat uchun to‘lov amalga oshirilganligini yoki POS-terminalning arizada ko‘rsatilgan Tadbirkorga tegishliligini tasdiqlay olmaydigan operatsiyalar.

6.10. Axborot hamkori tomonidan mazkur Ofertaning aksepti Aksiya to‘g‘risidagi axborot materiallarini tarqatishning boshlanishi yoki mazkur Ofertaga qo‘shilganligini ko‘rsatuvchi boshqa harakatlarning amalga oshirilishi deb e’tirof etiladi, agar bunday usul Tashkilotchi tomonidan belgilangan bo‘lsa.

7. AKSIYANI AXBOROT JIHATIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH VA ISHTIROK HOLATINI TEKSHIRISH

7.1. Rasmiy Telegram-botdan foydalanish ixtiyoriy bo‘lib, Aksiyada ishtirok etish sharti hisoblanmaydi. Tadbirkor Aksiya to‘g‘risida ma’lumot olish, shuningdek, ishtirokchilar va G‘oliblar ro‘yxatini ko‘rish uchun Aksiyaning rasmiy Telegram-boti – @HumoNestBotda ro‘yxatdan o‘tish huquqiga ega.

7.2. Rasmiy Telegram-botning shaxsiylashtirilgan funksiyalaridan foydalanish uchun ro‘yxatdan o‘tishda Tadbirkor vakilining telefon raqamini Telegram orqali kontaktni yuborish va bir martalik OTP-kod yordamida tasdiqlash, subyekt turini tanlash, nomini ko‘rsatish, yuridik shaxs uchun STIR yoki yakka tartibdagi tadbirkor uchun JSHSHIRni, shuningdek, kamida bitta Terminal IDni ko‘rsatish talab etiladi.

7.4. Vakolatli vakilning telefon raqami Tashkilotchi tomonidan faqat Tadbirkorni identifikatsiya qilish, ishtirok holatini tekshirish, Aksiya to‘g‘risidagi bildirishnomalarni yuborish hamda yutuq qo‘lga kiritilgan taqdirda G‘olib bilan bog‘lanish uchun foydalaniladi.

7.6. Rasmiy Telegram-bot ishtirok holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Tashkilotchilda tekshirish vaqtida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida aks ettiradi. Mazkur ma’lumotlar ma’lumot uchun taqdim etiladi va operatsiyalarga ishlov berilgandan hamda texnik kechikishlar bartaraf etilgandan so‘ng yangilanishi mumkin. Rasmiy Telegram-botda joylashtirilgan ma’lumotlar mazkur Ofertaning o‘rnini bosmaydi; Aksiyaning to‘liq qoidalari Tashkilotchining rasmiy resursida/Aksiya lendingida e’lon qilinadi va rasmiy Telegram-bot interfeysidagi qisqartirilgan shakldagi ma’lumotlardan qat’i nazar, qo‘llaniladi.

7.5. Xavfsizlikni ta’minlash maqsadida Tashkilotchi qurilma almashtirilganda, qayta kirishda, shubhali faollik aniqlanganda yoki Tadbirkor ma’lumotlarining xavfsizligiga ta’sir qiluvchi boshqa holatlarda telefon raqamini qayta tasdiqlashni talab qilishga haqli.

7.6. Rasmiy Telegram-bot vaqtincha texnik xizmat ko‘rsatish rejimida bo‘lishi mumkin. Bunday holatda Tadbirkor so‘rovni keyinroq takrorlash yoki 1114 raqami orqali yoxud Tashkilotchi tomonidan ko‘rsatilgan boshqa kanallar orqali qo‘llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish huquqiga ega.

8. HAFTA ISHTIROKCHILARI RO‘YXATLARINI SHAKLLANTIRISH VA ISHTIROK HOLATINI ANIQLASH

8.1. Har bir Aksiya Haftasi yakunlari bo‘yicha Tashkilotchi Aksiya shartlariga potensial ravishda mos keladigan amaldagi HUMO POS-terminallari bo‘yicha operatsiyalarning dastlabki bazasini shakllantiradi.

8.2. Dastlabki baza asosida Tashkilotchi operatsiyalarni texnik va nazorat tekshiruvidan o‘tkazadi, Oferta shartlariga mos kelmaydigan operatsiyalarni, shuningdek, bekor qilish, qaytarish, nizo, texnik dublikat, firibgarlik yoki boshqa noto‘g‘rilik alomatlari mavjud bo‘lgan operatsiyalarni chiqarib tashlaydi hamda har bir Tadbirkorning umumiy Aylanmasini aniqlaydi.

8.3. Aksiya Haftasi uchun umumiy Aylanmasi 7 000 000 so‘mdan 70 000 000 so‘mgacha (shu summa ham kiradi) bo‘lgan Tadbirkorlarga Hafta Ishtirokchisi maqomi beriladi va Hafta Ishtirokchilari ro‘yxatida g‘oliblarni random.org yordamida tasodifiy tanlashda foydalanish uchun noyob tartib raqamiga ega bitta qayd beriladi.

8.4. Hafta ishtirokchilari ro‘yxati ommaviy tekshirish uchun shakllantirilishi mumkin, u bir vaqtning o‘zida random.org yordamida bosqich g‘olibini aniqlash uchun qo‘llaniladigan raqam sanaladigan noyob tartib raqami va hafta raqamini o‘z ichiga oladi, shuningdek G‘oliblarni identifikatsiyalash maqsadlari va qonunchilik talablariga rioya etish uchun to‘liq ichki ko‘rinishda ham shakllantiriladi. To‘liq ichki ro‘yxat ommaviy e’lon qilinmaydi.

8.5. Ommaviy O‘yin boshlanishidan oldin Komissiya Hafta Ishtirokchilari yakuniy ro‘yxatini, ishtirok etayotgan qaydlarning umumiy sonini hamda random.orgda foydalaniladigan tartib raqamlari diapazonini qayd etadi. Yakuniy ro‘yxat tegishli Aksiya Haftasining oxirgi kalendar kuni soat 23:59:59 holatiga, shuningdek, Oferta 3.4-bandida nazarda tutilgan texnik ishlov berish davri yakunlariga ko‘ra shakllantiriladi. Yakuniy ro‘yxat tasdiqlanganidan so‘ng unga o‘zgartirishlar kiritilmaydi, bundan Ofertada bevosita nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha qaydni bekor qilish holatlari mustasno.

8.6. Hafta Ishtirokchilari ro‘yxati shakllantirilganidan so‘ng Tadbirkorning Aylanmasi tarkibiga kiritilgan operatsiya bekor qilingan, qaytarilgan, nizoli, xato yoki firibgarlik bilan bog‘liq deb topilgan yoxud Aksiya shartlariga mos kelmaydigan deb e’tirof etilgan bo‘lsa va bu Tadbirkorning Oferta 6.1-bandida ko‘rsatilgan diapazonga muvofiqligiga ta’sir qilsa, tegishli qayd Hafta Ishtirokchilari ro‘yxatidan chiqarilishi, u bilan bog‘liq O‘yin natijasi esa bekor qilinishi mumkin.

8.7. Tashkilotchi ishtirokchilarning ichki ro‘yxatlari, ro‘yxatlarni shakllantirish bayonnomalari va Aksiyaga oid boshqa materiallarning Tashkilotchining ichki hujjatlari hamda amaldagi qonunchilikda belgilangan muddat davomida saqlanishini ta’minlaydi.

9. SOVRIN JAMG‘ARMASI VA O‘YINLAR JADVALI

9.1. Aksiyaning sovrin jamg‘armasi faqat Tashkilotchining mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi hamda har biri 5 000 000 (besh million) so‘m miqdoridagi pul sovrinlaridan iborat.

9.2. Aksiyaning har bir Haftasi doirasida Hafta Ishtirokchilari orasidan tasodifiy tanlash usulida 20 (yigirma) nafar G‘olib aniqlanadi, ularning har biri 5 000 000 so‘m miqdoridagi pul sovrinini oladi. Aksiyaning bir Haftasi uchun sovrin jamg‘armasining maksimal miqdori 100 000 000 (yuz million) so‘mni, butun Aksiya uchun esa — 9 (to‘qqiz) ta Aksiya Bosqichi bo‘yicha Hafta Ishtirokchilarining amaldagi soniga qarab 900 000 000 (to‘qqiz yuz million) so‘mgacha bo‘lgan summani tashkil etadi.

9.3. Aksiya Haftalari va haftalik O‘yinlarni o‘tkazish jadvali:

Bosqich	Qatnashish davri	Efir sanasi	mukofotlar
1	14.09.2026 - 20.09.2026	23.09.2026	20 nafar g‘olib × 5 000 000 so‘m
2	21.09.2026 - 27.09.2026	30.09.2026	20 nafar g‘olib × 5 000 000 so‘m
3	28.09.2026 - 04.10.2026	07.10.2026	20 nafar g‘olib × 5 000 000 so‘m
4	05.10.2026 - 11.10.2026	14.10.2026	20 nafar g‘olib × 5 000 000 so‘m
5	12.10.2026 - 18.10.2026	21.10.2026	20 nafar g‘olib × 5 000 000 so‘m
6	19.10.2026 - 25.10.2026	28.10.2026	20 nafar g‘olib × 5 000 000 so‘m
7	26.10.2026 - 01.11.2026	04.11.2026	20 nafar g‘olib × 5 000 000 so‘m
8	02.11.2026 - 08.11.2026	11.11.2026	20 nafar g‘olib × 5 000 000 so‘m

Bosqich	Qatnashish davri	Efir sanasi	mukofotlar
9	09.11.2026 - 15.11.2026	18.11.2026	20 nafar g‘olib × 5 000 000 so‘m + oldingi haftalarning keyinga qoldirilgan (ishlatilmagan/bekor qilingan) mukofotlari, agar bo‘lsa

9.3. Jadvalga Tashkilotchi tomonidan aniqlik kiritilishi mumkin. O‘yinlarning amaldagi sanalari va vaqti Tashkilotchining rasmiy resurslarida va/yoki rasmiy Telegram-botda joylashtiriladi.

9.4. Aksiyaning istalgan Haftasi yakunlari bo‘yicha pul sovrini G‘olibga sovrinni olishdan yozma ravishda voz kechishi, yutug‘ining bekor qilinishi yoki mazkur Ofertada nazarda tutilgan boshqa asoslar tufayli topshirilmagan bo‘lsa, bunday sovrin Aksiyaning yakuniy (to‘qqizinchi) Haftasi sovrin jamg‘armasiga kiritiladi va Aksiyaning yakuniy Haftasi Ishtirokchilari o‘rtasida qo‘shimcha ravishda o‘ynaladi. Agar qo‘shimcha O‘yin o‘tkazilganidan so‘ng sovrin mazkur Ofertada nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha G‘olibga topshirilmagan bo‘lsa, bunday sovrin bekor qilinadi va qayta o‘ynalmaydi.

10. OMMAVIY O‘YINLARNI O‘TKAZISH TARTIBI

10.1. Haftalik O‘yinlar Tashkilotchining rasmiy axborot resurslarida, shu jumladan, Tashkilotchi tomonidan tegishli efir boshlanishidan oldin ko‘rsatilgan ijtimoiy tarmoqlar va/yoki videoplatformalarda jonli efirda ommaviy tarzda o‘tkaziladi.

10.2. Tegishli Aksiya Haftasining 20 nafar G‘olibini aniqlash random.org servisidan foydalangan holda tasodifiy tanlash usulida amalga oshiriladi. O‘yin uchun Hafta Ishtirokchilari yakuniy ro‘yxatidagi tartib raqamlariga mos keladigan diapazondan foydalaniladi.

10.3. Efir boshlanishidan oldin Komissiya Hafta Ishtirokchilarining yakuniy ro‘yxatini, ishtirok etishga qo‘yilgan qaydlarning umumiy sonini, random.org uchun raqamlar diapazonini hamda G‘oliblarni aniqlash tartibini qayd etadi.

10.4. Jonli efir davomida Tashkilotchi vakili ishtirokchilar sonini, raqamlar diapazonini, random.org interfeysini va tasodifiy tanlash natijalarini namoyish etadi. Texnik jihatdan imkoniyat mavjud bo‘lsa, random.org ekrani tomoshabinlar tasodifiy raqamlarni generatsiya qilish jarayonini ko‘rishi mumkin bo‘lgan tarzda namoyish etiladi.

10.5. Agar bitta O‘yin doirasida avval mazkur O‘yinda G‘olib deb aniqlangan raqam qayta tushsa, Komissiya yangi noyob raqam olingunga qadar darhol qayta generatsiya o‘tkazishi va aynan 20 nafar noyob G‘olib aniqlanishini ta’minlashi shart.

10.6. O‘yin natijalari Tashkilotchi tomonidan G‘oliblar tekshiruvi yakunlangunga qadar dastlabki hisoblanadi. Tashkilotchi G‘olibning Oferta shartlariga muvofiqligini, POS-terminalning tegishliligini, STIR/JSHSHIR ma’lumotlarining ishonchliligini, diskvalifikatsiya qilish uchun asoslar mavjud emasligini hamda Aylanmani shakllantirgan operatsiyalarning to‘g‘riligini tekshirishga haqli.

10.7. Yakuniy natijalar tekshiruv yakunlanganidan so‘ng Oferta 11-bo‘limida belgilangan tartibda e’lon qilinadi.

10.8. Har bir O‘yin yakunlari bo‘yicha Komissiya bayonnoma tuzadi. Unda efirning sanasi va vaqti, Komissiya tarkibi, raqamlar diapazoni, ishtirokchilar soni, random.org tomonidan generatsiya qilingan raqamlar, G‘oliblar, shuningdek, boshqa muhim holatlar qayd etiladi.

10.9. Jonli efirning video yozuvi Tashkilotchi tomonidan saqlanishi hamda O‘yin o‘tkazilishining shaffofligini tasdiqlash, Tadbirkorlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish va ichki nazorat maqsadlarida foydalanilishi mumkin.

10.10. Jonli efir davomida translyatsiyaning uzilishi, random.org’ning ishlamasligi, internet aloqasidagi uzilish yoki boshqa texnik hodisani o‘z ichiga olgan texnik nosozlik yuzaga kelgan taqdirda, Komissiya mazkur holatni qayd etadi va O‘yinni to‘liq yoki tegishli qismi bo‘yicha to‘xtatib turish, boshqa vaqtga ko‘chirish yoki qayta o‘tkazishga haqli.

10.11. random.org’ga ulanib bo‘lmaganda, Tashkilotchi O‘yinni boshqa sanaga ko‘chirishga yoki shaffoflik darajasi bo‘yicha unga teng keladigan, ommaviy foydalanish mumkin bo‘lgan boshqa tasodifiy raqamlar generatoridan foydalanishga haqli, bunda bunday qaror Komissiya bayonnomasida qayd etilishi va tegishli ma’lumot rasmiy resurslarda e’lon qilinishi shart.

11. G‘OLIBLARNI ANIQLASH, XABARDOR QILISH VA E’LON QILISH

11.1. Tegishli Aksiya Haftasi O‘yini davomida qaydi g‘olib deb aniqlangan Tadbirkor G‘olib deb e’tirof etiladi, bunda Tadbirkor Oferta talablariga to‘liq muvofiq bo‘lishi lozim.

11.2. O‘yin o‘tkazilganidan so‘ng Tashkilotchi G‘olibni qo‘shimcha ravishda tekshiradi, shu jumladan, operatsiyalarni, POS-terminalni, STIR/JSHSHIRni, ishtirok etishdagi cheklovlarning mavjud emasligini, firibgarlik yoki Aylanmani sun’iy ravishda shakllantirish alomatlarining mavjud emasligini o‘rganadi.

11.3. G‘olibni xabardor qilish Tashkilotchi tomonidan Tadbirkorning yoki uning vakillarining Tashkilotchiga ma’lum bo‘lgan telefon raqamlariga tegishli O‘yin yakunlari e’lon qilinganidan keyin 3 (uch) ish kuni davomida kamida 3 (uch) marta qo‘ng‘iroq qilish orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, Tashkilotchi rasmiy Telegram-bot, SMS, push-bildirishnomalar yoki boshqa mavjud aloqa vositalaridan foydalanishga haqli.

11.4. Tegishli Aksiya Haftasi G‘oliblari yakuniy ro‘yxati e’lon qilingan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kuni davomida Tashkilotchi G‘olib bilan bog‘lana olmagan bo‘lsa yoki G‘olib sovrinni olish uchun zarur hujjatlarni taqdim etmagan yoxud sovrinni olishdan voz kechgan bo‘lsa, yutuq bekor qilingan deb e’tirof etiladi, sovrin esa Oferta 9.4-bandida nazarda tutilgan tartibda Aksiyaning yakuniy (to‘qqizinchi) Haftasi sovrin jamg‘armasiga o‘tkaziladi.

11.5. G‘oliblar ro‘yxati shaffoflikni ta’minlash maqsadida e’lon qilinadi va unda Tadbirkorning nomi, STIR va/yoki JSHSHIR, Hafta raqami, O‘yin sanasi, sovrin summasi va/yoki boshqa shaxssizlantirilgan ma’lumotlar ko‘rsatiladi. G‘oliblarning to‘liq ma’lumotlari, telefon raqamlari, bank rekvizitlari va boshqa maxfiy ma’lumotlari e’lon qilinmaydi hamda faqat identifikatsiya qilish, sovrinni to‘lash, hisobga olish va qonunchilik talablarini bajarish maqsadlarida foydalaniladi.

11.6. Ishtirokchilar va G‘oliblar ro‘yxatini tekshirish uchun Tadbirkor rasmiy Telegram-botning tegishli bo‘limidan foydalanish huquqiga ega. Tashkilotchi shuningdek, Aksiya lendingida va rasmiy resurslarda shaxssizlantirilgan ro‘yxatlarni joylashtirishga haqli.

11.7. Agar Tadbirkorning qaydi e’lon qilingan G‘oliblar ro‘yxatida mavjud bo‘lsa, biroq Tadbirkor bilan bog‘lanilmagan bo‘lsa, Tadbirkor yoki uning Vakolatli vakili tegishli Aksiya Haftasi G‘oliblari yakuniy ro‘yxati birinchi marta e’lon qilingan kundan boshlab 30 kalendar kuni ichida 1114 raqami orqali, humo_promo@nmpc.uz elektron pochta manziliga yoki ish vaqtida Tashkilotchining Toshkent shahri, Maxtumquli ko‘chasi, 178/1-uy manzilidagi ofisiga mustaqil ravishda murojaat qilish huquqiga ega.

12. HUJJATLARNI TAQDIM ETISH VA SOVRINLARNI OLISH TARTIBI

12.1. Pul sovrinini olish uchun G‘olib tegishli Aksiya Haftasi G‘oliblari yakuniy ro‘yxati e’lon qilingan kundan boshlab 30 kalendar kunidan kechiktirmagan holda rasmiy elektron hujjat aylanishi platformasi orqali yozma rozilik yuborishi shart. Mazkur rozilikda G‘olib Aksiya shartlari va sovrinni olish tartibi bilan tanishganligini, ommaviy oferta shartlarini aksept qilganligini hamda pul sovrinini o‘z bank hisobvarag‘iga o‘tkazishga roziligini tasdiqlaydi. Xatda STIR, yakka tartibdagi tadbirkor uchun qo‘shimcha ravishda JSHSHIR, Terminal ID hamda hisob-kitob bank hisobvarag‘ining bank rekvizitlari ko‘rsatiladi. Yuridik shaxs nomidan xat rahbar yoki boshqa vakolatli shaxs tomonidan, yakka tartibdagi tadbirkor nomidan esa yakka tartibdagi tadbirkorning o‘zi yoki uning Vakolatli vakili tomonidan imzolanadi. Tashkilotchi imzolovchining vakolatlarini tasdiqlash, G‘olibni identifikatsiya qilish, taqdim etilgan ma’lumotlarni tekshirish va to‘lovni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni so‘rashga haqli.

12.2. Pul sovrini Tashkilotchi tomonidan Oferta 12.1-bandida nazarda tutilgan xat va boshqa zarur hujjatlar olingan hamda tekshirilganidan so‘ng 15 (o‘n besh) ish kuni ichida Tadbirkorning hisob-kitob bank hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

12.3. Agar G‘olib hujjatlarni taqdim etmagan, ishonchsiz hujjatlarni taqdim etgan, ularni taqdim etishdan bosh tortgan yoki identifikatsiyadan o‘tmagan bo‘lsa, Tashkilotchi yutuqni bekor qilishga haqli; sovrin Oferta 9.4-bandida nazarda tutilgan tartibda Aksiyaning yakuniy Haftasi sovrin jamg‘armasiga o‘tkaziladi.

12.5. Tashkilotchi Tadbirkorning Aksiyada ishtirok etish, hujjatlarni tayyorlash va taqdim etish, qo‘llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish bilan bog‘liq xarajatlarini yoki boshqa qo‘shimcha xarajatlarini qoplamaydi.

13. SOLIQQA TORTISH

13.1. Aksiya doirasidagi pul sovrinlarini tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar oladi. Shu sababli olingan sovrin oluvchi tomonidan o‘z daromadi tarkibida hisobga olinadi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli Tadbirkorga nisbatan qo‘llaniladigan soliqqa tortish rejimiga muvofiq soliqqa tortiladi.

13.2. Agar amaldagi qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, Tashkilotchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan sovrin olinishi bilan bog‘liq soliqlar bo‘yicha soliq agenti hisoblanmaydi. Tadbirkor olingan sovrinni o‘zining buxgalteriya va soliq hisobida mustaqil ravishda aks ettiradi hamda tegishli soliq majburiyatlarini bajaradi.

13.3. G‘olibning so‘roviga ko‘ra, Tashkilotchi Tadbirkorga sovrinni o‘z hisobida aks ettirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni, shu jumladan, to‘lov summasi va sanasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani taqdim etadi.

13.4. Mazkur bo‘lim soliq masalalari bo‘yicha maslahat hisoblanmaydi. Tashkilotchi Tadbirkorlarga olingan sovrinni soliq hisobida aks ettirish tartibini o‘z buxgalteri yoki soliq maslahatchisi bilan mustaqil ravishda aniqlashtirishni tavsiya etadi.

14. TADBIRKOR MA’LUMOTLARI VA VAKILNING SHAXSIY MA’LUMOTLARI

14.1. Aksiyani o‘tkazish maqsadida Tashkilotchi o‘zining axborot va protsessing tizimlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni, shu jumladan Tadbirkorlar, POS-terminallar, operatsiyalar va Aylanma haqidagi ma’lumotlarni Hafta Ishtirokchilarini aniqlash, ro‘yxatlarni shakllantirish, O‘yinlarni o‘tkazish, natijalarni tekshirish va sovrinlarni to‘lash uchun zarur bo‘lgan hajmda qayta ishlaydi.

14.2. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va Tadbirkorlarning vakillariga tegishli, rasmiy Telegram-bot orqali, G‘olibning xati orqali yoki qonuniy boshqa usulda olingan shaxsiy ma’lumotlar Tashkilotchi tomonidan

O‘zbekiston Respublikasining shaxsiy ma’lumotlarga oid qonunchiligiga muvofiq, shaxsiy ma’lumotlar subyekti roziligi yoki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asos mavjud bo‘lgan taqdirda qayta ishlanadi.

14.3. Tadbirkorning identifikatsiya qilish, sovrinni to‘lash yoki qonunchilik talablarini bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etishdan bosh tortishi sovrinni berishni rad etish va/yoki yutuqni bekor qilish uchun asos hisoblanadi.

15. DISKVALIFIKATSIYA, TEKSHIRISH VA NATIJALARNI BEKOR QILISH

15.1. Tashkilotchi Oferta shartlariga nomuvofiqlik, noto‘g‘ri ma’lumotlar, haqiqiy bo‘lmagan Terminal ID, POS-terminalga egalik qilish huquqining mavjud emasligi, bekor qilingan operatsiya, qaytarilgan to‘lov, texnik dublikat, firibgarlik yoki Aksiya mexanizmi suiiste’mol qilinganligi aniqlangan taqdirda Tadbirkorni sovrin uchun da’vogarlar qatoridan chiqarish yoki yutuqni bekor qilish huquqiga ega.

15.2. Aksiya mexanizmini suiiste’mol qilish holatlariga, xususan, quyidagilar kirishi mumkin: Oferta 6.1-bandida ko‘rsatilgan diapazonga kirish maqsadida Aylanmani bir nechta Terminal ID va/yoki Tadbirkorlar o‘rtasida sun’iy ravishda bo‘lib yuborish yoki birlashtirish; tovarni haqiqiy yetkazib bermay va/yoki xizmatni amalda ko‘rsatmasdan operatsiyalarni amalga oshirish; Tadbirkorlar o‘rtasidagi til biriktirish; boshqa shaxslarning POS-terminallari, STIR/JSHSHIR yoki telefon raqamlaridan foydalanish; yolg‘on ma’lumotlarni taqdim etish; Tashkilotchi tomonidan ma’lumotlarni tekshirishga to‘sqinlik qilish.

15.3. Natijalar e’lon qilinganidan keyin G‘olib Ofertaning 5.1-bandida belgilangan cheklovlar doirasiga kirishi aniqlangan taqdirda, yutuq bekor qilinadi, sovrin esa Ofertaning 9.4-bandida nazarda tutilgan tartibda Aksiyaning yakuniy Haftasi sovrin jamg‘armasiga o‘tkaziladi.

15.4. Tashkilotchi Tadbirkorlar va G‘oliblarni qonunchilikda ruxsat etilgan doirada ekvayring banklari, protsessing tizimlari, ichki bo‘linmalar, xavfsizlik xizmati, komplayens bo‘linmalari hamda boshqa vakolatli shaxslarni jalb qilgan holda qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tkazish huquqiga ega. Tekshiruv o‘tkazilayotgan davrda Tashkilotchi sovrinni to‘lashni vaqtincha to‘xtatib turish huquqiga ega bo‘lib, bunda Tadbirkorga biron-bir kompensatsiya to‘lash majburiyati yuzaga kelmaydi.

15.5. Tadbirkorni chiqarish, G‘olibni diskvalifikatsiya qilish yoki yutuqni bekor qilish to‘g‘risidagi qaror Tashkilotchi tomonidan bunday qaror uchun asosni tasdiqlash uchun yetarli bo‘lgan ichki hujjat, Komissiya bayonnomasi yoki boshqa hujjatda qayd etiladi.

16. TOMONLARNING HUQUQLARI VA JAVOBGARLIGI

16.1. Tashkilotchi obyektiv sabablar mavjud bo‘lgan taqdirda, jumladan texnik nosozliklar, fors-major holatlari, qonunchilik talablari, davlat organlarining qarorlari, bank yoki protsessing tizimlaridagi nosozliklar, shuningdek Aksiyaning xavfsizligi va shaffofligiga ta’sir ko‘rsatuvchi holatlar yuzaga kelganda Aksiya shartlarini o‘zgartirish va to‘ldirish, Aksiyani vaqtincha to‘xtatib turish yoki muddatidan oldin tugatish huquqiga ega.

16.2. Tashkilotchi istalgan shaxsni mazkur Ofertaga Axborot hamkori sifatida qo‘shilishini rad etish yoki mazkur Oferta shartlari buzilgan taqdirda Axborot hamkori maqomini bekor qilish huquqiga ega.

16.3. Aksiya shartlariga kiritilgan o‘zgartirishlar Tashkilotchining rasmiy resurslarida va/yoki **@HumoNestBot** rasmiy Telegram-botida e’lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi, agar Tashkilotchi tomonidan kuchga kirishning boshqa muddati belgilanmagan bo‘lsa. Bunday o‘zgartirishlar yakunlangan Bosqichlarga nisbatan tatbiq etilmaydi hamda o‘zgartirishlar kuchga kirish sanasiga qadar aniqlangan G‘oliblarning holatini yomonlashtirishi mumkin emas.

16.4. Tashkilotchi firibgarlikning oldini olish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, ishtirokchilar ro‘yxatlarini to‘g‘ri shakllantirish va O‘yinlarning shaffofligini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha texnik cheklovlar va tekshiruv tartib-taomillarini joriy etish huquqiga ega.

16.5. Tashkilotchi banklar, aloqa operatorlari, Telegram, internet-provayderlar, to‘lov tizimlari, random.org, ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar, shuningdek boshqa uchinchi shaxslarning ish faoliyatidagi nosozliklar uchun, agar bunday nosozliklar Tashkilotchining oqilona nazorati doirasidan tashqarida bo‘lsa, javobgar bo‘lmaydi.

16.6. Tashkilotchi kontakt ma’lumotlarining yo‘qligi, noto‘g‘riligi yoki dolzarbligini yo‘qotganligi sababli G‘olibni xabardor qilishning imkoni bo‘lmaganligi, shuningdek aloqa operatorlari, Telegram, internet-provayderlar yoki boshqa uchinchi shaxslarning ish faoliyatidagi nosozliklar uchun, agar bunday holatlar Tashkilotchining oqilona nazorati doirasidan tashqarida bo‘lsa, javobgar bo‘lmaydi.

16.7. Ishtirokchi taqdim etayotgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi, telefon raqamining dolzarbligi, to‘lov terminalining, rekvizitlarning tegishliligi, hujjatlarni o‘z vaqtida taqdim etish, Oferta shartlariga rioya qilish va Aksiya haqidagi ma’lumotlarni mustaqil ravishda kuzatib borish uchun javobgar hisoblanadi.

16.8. Ishtirokchi Aksiya, ishtirokchilar va G‘oliblar ro‘yxatlari haqidagi ma’lumotlarni @**HumoNestBot**, Aksiya landing sahifasi va/yoki Tashkilotchining rasmiy resurslari orqali mustaqil ravishda tekshirish huquqiga ega.

16.9. Tashkilotchi, agar Oferta tomonidan bevosita boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, Ishtirokchilarning Aksiyada ishtirok etish, qo‘llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish, hujjatlarni olish, sovrinni olish uchun safar qilish, yashash, aloqa yoki boshqa turdosh xarajatlarini qoplamaydi.

16.10. Axborot hamkori Tashkilotchi tomonidan taqdim etilgan axborot materiallaridan foydalanish, Aksiya haqidagi ma’lumotlarni o‘zining axborot resurslarida joylashtirish hamda Aksiyaning Axborot hamkori maqomidan foydalanish huquqiga ega.

16.11. Axborot hamkori faqat Tashkilotchi tomonidan taqdim etilgan yoki kelishilgan materiallardan foydalanishi, ularni joylashtirish jarayonida Aksiya shartlarini o‘zgartirmasligi, Ishtirokchilardan murojaatlar kelib tushgan taqdirda ularni Tashkilotchiga yo‘naltirishi hamda mazkur Oferta talablariga rioya qilishi shart.

16.12. Axborot hamkori HUMO to‘lov terminallarining bo‘lajak egalari e’tiboriga Aksiyaning o‘tkazilishi, uning asosiy shartlari, o‘tkazilish muddatlari va ishtirok etish tartibi haqidagi ma’lumotlarni Axborot hamkori xodimlari tomonidan mijozlarni xabardor qilish orqali yetkazilishini ta’minlash majburiyatini oladi.

16.13. Axborot hamkori tomonidan mazkur Oferta yoki Tashkilotchi tomonidan taqdim etilgan materiallarga mos kelmaydigan ma’lumotlar tarqatilgan taqdirda, Axborot hamkori bunday harakatlarning oqibatlari uchun mustaqil ravishda javobgar bo‘ladi va Tashkilotchining talabi bilan yo‘l qo‘yilgan buzilishlarni darhol bartaraf etishi shart.

16.14. Axborot hamkori Axborot hamkori maqomi bekor qilinganidan va Aksiyaning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng HUMO tovar belgilaridan, Aksiyaning firma uslubidan hamda Tashkilotchining boshqa intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqiga ega emas.

17. FORS-MAJOR VA NIZOLARNI HAL ETISH

17.1. Tashkilotchi Oferta bo‘yicha majburiyatlarni to‘liq yoki qisman bajarmaganligi uchun, agar bunday bajarmaslik yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari, jumladan tabiiy ofatlar, yong‘in, suv toshqini, harbiy harakatlar, ommaviy tartibsizliklar, epidemiyalar, karantin cheklovlari, davlat organlarining qarorlari, infratuzilmadagi nosozliklar, qonunchilikdagi jiddiy o‘zgarishlar hamda Tashkilotchining irodasiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa holatlar tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

17.2. Yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari yuzaga kelgan taqdirda, Tashkilotchi Aksiyani o‘tkazish muddatlarini o‘zgartirish, O‘yinni boshqa muddatga ko‘chirish, sovrinlarni topshirish tartibini o‘zgartirish, Aksiyani vaqtincha to‘xtatib turish yoki uni muddatidan oldin tugatish huquqiga ega. Bunda tegishli ma’lumotlar rasmiy resurslarda e’lon qilinadi.

17.3. Aksiyani o‘tkazish, Aksiyada ishtirok etish, G‘oliblarni aniqlash, sovrinlarni topshirish yoki Oferta shartlarini bajarish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar o‘tkazish hamda Ishtirokchining Tashkilotchi qo‘llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilishi orqali hal etiladi.

17.4. Nizoni da’vo tartibida hal etish majburiy hisoblanadi. Murojaatlar **@HumoNestBot** rasmiy Telegram-boti orqali, **1114** telefon raqami orqali, Tashkilotchining Toshkent shahri, Maxtumquli ko‘chasi, 178/1-uy manzilidagi ofisiga yoki Tashkilotchi tomonidan ko‘rsatilgan boshqa usulda yuborilishi mumkin.

17.5. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizo O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining vakolatli sudida ko‘rib chiqish uchun topshiriladi.

18. YAKUNIY QOIDALAR VA TASHKILOTCHINING REKVIZITLARI

18.1. HUMO tovar belgilaridan, Aksiya logotiplaridan, firma uslubidan va reklama materiallaridan foydalanishga faqat Axborot hamkori maqomi amal qiladigan davrda va faqat Aksiyani targ‘ib qilish maqsadida yo‘l qo‘yiladi.

Tashkilotchi istalgan vaqtda Axborot hamkoridan tovar belgilari, logotiplar, reklama materiallari va Aksiya bilan bog‘liq boshqa intellektual mulk obyektlaridan foydalanishni to‘xtatishni talab qilish huquqiga ega. Bunday talab darhol bajarilishi lozim.

18.2. Mazkur Oferta bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

18.3. Oferta Tashkilotchining rasmiy resursida/Aksiya landing sahifasida e’lon qilingan sanadan boshlab kuchga kiradi va Aksiya to‘liq yakunlangunga qadar, shu jumladan G‘oliblarni tekshirish, sovrinlarni topshirish, soliq hujjatlarini rasmiylashtirish va murojaatlarni ko‘rib chiqish davrida amal qiladi.

18.4. Aksiya haqidagi ma’lumotlar, to‘liq qoidalar, O‘yinlar jadvali, Oferta tomonidan nazarda tutilgan hajmdagi ishtirokchilar va G‘oliblar ro‘yxatlari **@HumoNestBot**, Aksiya landing sahifasi va/yoki Tashkilotchining rasmiy resurslari orqali foydalanish uchun ochiq.

18.5. Oferta qoidalaridan biror-bir qismi haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, bu Oferta qolgan qoidalarining haqiqiyligiga ta’sir ko‘rsatmaydi.

18.6. Tashkilotchi Aksiya materiallarini, shu jumladan ishtirokchilar ro‘yxatlari, G‘oliblar ro‘yxatlari, Komissiya bayonnomalari, efirlarning videoyozuvlari va G‘oliblarning hujjatlarini qonunchilik talablarini bajarish, ichki nazorat, audit, buxgalteriya va soliq hisobini yuritish uchun zarur bo‘lgan muddat davomida saqlash huquqiga ega.

19. TASHKILOTCHINING REKVIZITLARI

“Milliy banklararo protsessing markazi” aksiyadorlik jamiyati

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko‘chasi, 178/1-uy.
STIR: 302900674
E-mail: info@nmpc.uz тел.: (+99871) 200-08-88
Bank rekvizitlari:
h/r: 20208000700296870001
“Octobank” AJ МФО: 00980
Kol-markaz raqami: 1114